

EKOLOGIK DISKURSDA TIL MEYORI VA LISONIY DEVIATSIYALAR MUNOSABATI (LINGVOEKOLOGIK ASPEKT)

Shaxlo Naraliyeva,

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori,
Qozog'iston Respublikasi, Jumabek Tashenev nomli universitet
Xalqaro hamkorlik va akademik mobillik markazi boshlig'i,
[ORCID.org/0000-0002-5064-2605](https://orcid.org/0000-0002-5064-2605)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lgan lingvoekologiya kontekstida til meyori va lisoniy deviatsiyalar o'rtasidagi dialektik munosabatlar tadqiq etilgan. Ekologik va maishiy diskurs materiallari asosida fonografik, grafik, leksik va semantik deviatsiyalarning funksional-pragmatik xususiyatlari ochib berilgan. Tadqiqotda sheva xususiyatlariga asoslangan fonetik deviatsiyalar (ariq \rightarrow oriq, shamol \rightarrow shomol), «yomg'ir/yog'mir» so'zining tarixiy-etimologik deviatlashuvi, raqamli media muhitdagi grafik deviatsiyalar (Caps Lock, ramziy bosh harflar), «trans-» formantining semantik evolyutsiyasi hamda maishiy nutqdagi emotsional-baholovchi birliklar ilmiy tahlilga tortilgan. Muallif lisoniy deviatsiyalarni tilning inqirozi emas, balki uning yangi voqelikka moslashish va boyish omili sifatida asoslab bergan.

Kalit so'zlar: lingvoekologiya, ekologik diskurs, maishiy diskurs, til meyori, fonografik deviatsiya, grafik deviatsiya, leksik innovatsiya, okkazonalizm, konnotatsiya.

Аннотация. В данной статье в контексте лингвоэкологии, являющейся одним из перспективных направлений современного языкознания, исследуются диалектические отношения между языковой нормой и языковыми девиациями. На материале экологического и бытового дискурса раскрываются функционально-прагматические особенности фонографических, графических, лексических и семантических девиаций. В исследовании научно проанализированы фонетические девиации, основанные на диалектных особенностях (ариқ \rightarrow ориқ, шамол \rightarrow шомол), историко-этимологическая девиация слова «ёмғир/ёғмир», графические девиации в цифровой медиасреде (Caps Lock, символические прописные буквы), семантическая эволюция форманта «транс-», а также эмоционально-оценочные единицы в бытовой речи. Автор обосновывает языковые девиации не как кризис языка, а как фактор его адаптации к новой реальности и обогащения.

Ключевые слова: лингвоэкология, экологический дискурс, бытовой дискурс, языковая норма, фонографическая девиация, графическая девиация, лексическая инновация, окказионализм, коннотация.

Abstract. Within the framework of lingua-ecology, which represents one of the promising subfields in modern linguistics, this article investigates the dialectical relationship between language norms and linguistic deviations. Drawing upon materials from ecological and everyday discourse, the study elucidates the functional-pragmatic characteristics of phonographic, graphical, lexical, and semantic deviations. The research subjects phonetic deviations based on dialectal features (ariq \rightarrow oriq, shamol \rightarrow shomol), the historical-etymological deviation of the word "ёмғир/ёғмир", graphical deviations in the digital media environment (Caps Lock, symbolic capitalization), the semantic evolution of the formant "trans-", and emotional-evaluative units in everyday speech to a rigorous scientific analysis. The author substantiates that linguistic deviations do not signify a crisis of language, but rather serve as a factor in its adaptation to new realities and its enrichment.

Keywords: lingua-ecology, ecological discourse, everyday discourse, language norm, phonographic deviation, graphical deviation, lexical innovation, occasionalism, connotation.

Kirish. So'nggi yillarda dunyo miqyosida kuzatilgan tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishlari ekologik diskursda tilimli innovatsiyalarni yuzaga keltirdi. Masalan:

eko-terrorizm (tabiatga ongli ravishda zarar yetkazish);
iqlim migrantlari (noqulay ekologik muhit tufayli ko'chib ketuvchilar);
eko-distopiya (ekologik halokatga uchragan kelajak tasviri).

Asosiy qism. Ushbu birliklar dastlab til meyorlari uchun deviatson yangilik (neologizm) sifatida qabul qilingan bo'lsa, bugungi kunga kelib faol iste'moldagi barqaror leksikaga aylandi. Tilga bunday yangi birliklarning qo'shilishini tilning buzilishi emas, balki uning innovatsion yangilanishi deb baholash maqsadga muvofiqdir, chunki bu jarayonda til tizimining ichki meyorlari yangi voqelikni aks ettirish uchun kengayadi [3].

Leksik deviatSIONALARNING yana bir ko'rinishi so'zning shakli o'zgarmagan holda, uning ichki semantik tarkibida ma'no ko'chishi va yangi konnotativ (uslubiy) bo'yoqlarning paydo bo'lishi bilan belgilanadi. Bu jarayonda ma'lum bir sohaviy leksika (masalan, tibbiy nominatsiyalar) o'zining birlamchi denotativ mazmunidan uzilib, ijtimoiy-ekologik muhitni baholovchi metaforik deviatSIONALGA aylanadi.

Adabiyotlar tahlili. Lingvokologiya, til meyorlari va lisoniy deviatSIONAL MASALALARI T.I.Kolesnik, L.A. Nefedova, E.S.Krasnopeyeva, S.S.Krayeva, V.I.Zabotkina va N.V.Klenovalarning tadqiqotlarida turli jihatlardan yoritilgan. Y.N.Papula okkazonalizmlarning funksional-pragmatik xususiyatlarini tahlil qilgan. O'zbek tilshunosligida D.Ahmadovning kasallik nomlari leksikasiga oid tadqiqoti hamda "O'zbek tilining izohli lug'ati" va "O'zbek tilining etimologik lug'ati" materiallari mazkur mavzuni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Biroq ekologik diskursda til meyorlari va lisoniy deviatSIONAL munosabati lingvokologik aspektida yetarlicha tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda lingvopragmatik, lingvokologik va diskursiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Ekologik hamda maishiy diskursga oid matnlar asosida til meyorlari va lisoniy deviatSIONALARNING fonografik, grafik, leksik, semantik va sintaktik ko'rinishlari tahlil qilindi. Shuningdek, tavsifiy, qiyosiy va kontekstual tahlil usullari yordamida ularning funksional-pragmatik xususiyatlari yoritildi.

Tahlillar va natijalar. D.Ahmadovning tadqiqotida qayd etilishicha, asli arabcha «maxv» (yo'q qilish, chetlatish) so'zidan olingan «moxov» kasalligi tarixan yuqumli va davosiz bo'lgani uchun unga chalingan bemorlar jamiyatdan ajratilgan, surgun qilingan [1]. Bugungi kunda ushbu kasallik tibbiy jihatdan to'liq nazoratga olingan bo'lsa-da, so'zning semantik tarkibidagi «ajratilganlik, chetlatilganlik» semasi saqlanib qoldi va tilimizda semantik deviatSIONALNI yuzaga keltirdi. Zamonaviy ijtimoiy-ekologik va maishiy nutqda ushbu birlik «hammadan ajralib olgan, atrof-muhit muhokamalarida nafaol, jamiyatga qo'shilmaydigan» insonlarni salbiy baholash uchun ishlatilmoqda:

«Qo'shnilar uni yakka moxovga chiqarib, na ta'ziya va na to'y-hashamga aytmay qo'yishgan» (H. Nazir).

Maishiy-ekologik diskursda emotsional-baholovchi deviatSIONAL. Leksik deviatSIONAL nafaqat rasmiy matnlarda, balki jonli maishiy-ekologik diskursda ham juda

faol amal qiladi. Maishiy-ekologik diskurs — atrof-muhit muammolarining oddiy fuqarolar tomonidan, kundalik tajriba va norasmiy muloqot shakllarida (ijtimoiy tarmoqlardagi sharhlar, murojaatlar, oilaviy suhbatlar) muhokama qilinshidir.

Rasmiy yoki ilmiy-ekologik uslub qoidalariga ko‘ra, atrof-muhit holati «bog‘dagi daraxtlar qurimoqda», «havo sifati pasaygan», «suv havzasi ifloslanmoqda» kabi normativ, neytral ifodalar orqali berilishi lozim. Biroq, jonli maishiy nutqda aholi o‘z xavotiri va pragmatik maqsadini ifodalash uchun ongli ravishda ekspressiv-baholovchi leksik deviatsiyalarga murojaat qiladi. Masalan:

«Daryo ota iflos», «O‘rmon halokatga uchradi», «Barcha daraxtlar qirib tashlandi».

Ushbu kontekstlarda qo‘llanilgan iflos, halokat, qirib tashlanmoq kabi birliklarni sof leksik meyorning buzilishi yoki «til inqirozi» deb baholash ilmiy jihatdan noto‘g‘ri. Bu yerda biz maishiy nutq ishtirokchilarining ekologik voqelikka nisbatan ichki emotsional munosabatini, xavotirini aks ettiruvchi va adresatga kuchliroq ta’sir o‘tkazishga qaratilgan stilistik deviatsiya hodisasini kuzatamiz.

Leksik deviatsiyalarning eng oliy va individual ko‘rinishini okkazonalizmlar (mualliflik neologizmlari) tashkil etadi. Y.N. Papula ta’kidlaganidek, okkazonalizmlar kontekstual bog‘liqlik, yuqori darajadagi ekspressivlik, takrorilmaslik va nominativ ixtiyoriylik kabi qator tizimli xususiyatlarni o‘zida jamlaydi [2].

1. Olim okkazonalizmlar bajaradigan quyidagi muhim funksiyalarni ajratib ko‘rsatadi:
2. Majoziy-ekspressiv (muayyan tasvirni shakllantirish);
3. Deiktik (nutq egasiga xarakterli xususiyat berish);
4. Nominativ (yangi narsa-hodisalarni nomlash);
5. Kulgili (ironik yoki hajviy effekt yaratish);
6. Umumlashtiruvchi (murakkab hodisalar mohiyatini bitta so‘zda ifodalash);
7. Nutq-ijodiy (tilning so‘z boyligini kengaytirish);
8. Kamuflyaj (qo‘pol yoki taqiqlangan ma’noni yashirish);
9. Siquvchi (nutq iqtisodiyotiga xizmat qilish);
10. Estetik (poyetik ta’sir);
11. Ifodali (his-tuygo‘larni keng ko‘lamda aks ettirish).

Muallifning okkazonalizm yaratishdan ko‘zlagan asosiy pragmatik maqsadi — an’anaviy til vositalari bilan ifodalab bo‘lmaydigan ekologik hayajon yoki ijtimoiy munosabatni kuchli ifodalashdir. V.I. Zobotkina va N.V. Klenovalarning tasniflariga tayangan holda aytish mumkinki, har bir mualliflik okkazonalizmi mohiyatan «potensial neologizm» hisoblanadi [4]. Allaqachon umumiste’molga kirib ulgurgan ko‘plab texnik va ekologik atamalar (masalan, «internet», «ekotizim») o‘z davrida til meyor uchun deviatsion hodisa bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda oddiy normativ leksikaga aylandi [5]. Bu esa okkazonalizm va neologizmlar o‘rtasidagi chegaraning dinamik ekanligini ko‘rsatadi.

Diskursning liberallashuvi va raqamli muloqot shakllarining rivojlanishi nafaqat fonetika yoki leksika sathida, balki sintaktik sathda ham an’anaviy til meyorlaridan

chekinishni, ya'ni sintaktik deviatsiyalarni yuzaga keltirmoqda. Sintaktik deviatsiya — bu gap qurilishining akademik qoliplarini ongli ravishda buzish orqali fikrning dinamikasini, emotsional ta'sirchanligini oshirish va tinglovchi (diskurs ishtirokchisi) diqqatini ma'lum bir bo'lakka qaratish usulidir. Maishiy-ekologik diskursda bu hodisa, ayniqsa, parsellyatsiya va ellipsis shakllarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Parsellyatsiya — yaxlit bir sintaktik qurilmani (gapni) intonatsion va punktuatsion jihatdan bir nechta mustaqil qismlarga ajratib uzatish hodisasidir. Klassik sintaktik meyorga ko'ra, ega, kesim va ikkinchi darajali bo'laklar bitta gap chegarasida birlashishi lozim. Biroq, ekologik xavotir aks etgan maishiy bahslarda va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlarda quyidagicha parsellyatsiyalangan deviatsiyalarni kuzatamiz:

«Daraxtlarni kesib tashlashibdi. Shaharning qoq markazida. Kunduzi. Hammaning ko'z o'ngida. Insof bormi ularda?»

Ushbu matnda aslida bitta sodda yoyniq gap bo'lishi kerak bo'lgan fikr to'rtta mustaqil nuqta bilan ajratilgan bo'laklarga bo'lib yuborilgan. Bu yerda sintaktik deviatsiya pragmatik vazifani bajarmoqda: «Shaharning qoq markazida» (makon), «Kunduzi» (zamon) va «Hammaning ko'z o'ngida» (holat) bo'laklari alohida gap sifatida ajratilib, adresat ongiga kuchli mantiqiy va hissiy zarba beradi, voqeaning qay darajada achinarli ekanligini bo'rttirib ko'rsatadi.

Maishiy-ekologik nutq uchun xarakterli bo'lgan ikkinchi sintaktik deviatsiya — bu **ellipsis (gap bo'laklarining tushib qolishi)** hodisasidir. Nutq iqtisod qilinishi va axborot uzatish tezligining yuqoriligi sababli, kontekstdan anglashilib turgan kesim yoki boshqa bo'laklar atayin tushirib qoldiriladi:

«Bizdan toza havo, ulardan esa faqat va'dalar».

Bu yerda «talab qilinadi / kutilmoqda» va «yangramoqda» kabi fe'l-kesimlar tushirib qoldirilgan. Kesimlarning elliptik deviatlashuvi gapga yuqori dinamika bag'ishlaydi, maishiy muloqotda fikrning lo'nda va keskin ifodalanishini ta'minlaydi. Bu esa til tizimining sintaktik meyorlari ekologik pragmatika talabiga ko'ra qanday transformatsiyalanayotganini ko'rsatadi. Lingvoekologiya sohasining muhim yo'nalishlaridan biri — bu nutqiy muloqotdagi madaniy-lisoniy muhitni o'rganish, so'zlarning inson ruhiyatiga va ijtimoiy ongga ta'sirini baholashdir. Shu nuqtai nazardan, ekologik va maishiy diskursda **evfemizm (yumshoqroq ifoda) va disfemizm (qo'pol, salbiy bo'rttirilgan ifoda)** munosabati til meyorlari va deviatsiya muammosini yangicha aspektda yoritadi. Rasmiy, siyosiy-ekologik diskursda ko'pincha vaziyatni silliqlash, ijtimoiy vahimaning oldini olish maqsadida tizimli ravishda evfemizatsiya jarayoni qo'llaniladi. Bunda real halokatlar an'anaviy til meyorlari doirasidagi neytral terminlar bilan almashtiriladi. Masalan: *ekologik inqiroz / halokat* → *ekologik vaziyatning o'zgarishi*;

• *suvning zaharlanishi* → *suv tarkibida kimyoviy moddalar miqdorining meyordan oshishi*;

• *daraxtlarni ommaviy qirishni* \rightarrow *yashil maydonlarni tartibga solish (sanitar kesish).*

Ushbu evfemizmlar til meyorlari nuqtai nazaridan to'g'ri bo'lsa-da, lingvoekologik jihatdan ular axborotni kamuflyaj qilishga (yashirishga), voqelikning real xavfini pasaytirib ko'rsatishga xizmat qiladi.

Bunga zid ravishda, jonli maishiy-ekologik diskursda aholi va eko-faollar tomonidan tizimli ravishda **disfemizatsiya (normadan salbiy tomonga chekinish) hodisasi yuzaga chiqadi. Jamiyat rasmiy tilning silliqqligiga javoban, muammoning real ko'lamini ko'rsatish uchun ongli ravishda eng keskin va qo'pol deviatlardan foydalanadi:**

«*Shaharni yashil beshik emas, qatliom maydoniga aylantirishdi*», «*Bu suv emas, tirik zahar*», «*Ekologiya boshqarmasi emas, daraxt xo'rlar idorasi*».

Lingvoekologik aspektda ushbu disfemistik deviatlilar til madaniyatini buzuvchi salbiy unsurlar emas, balki jamiyatning ekologik ongini uyg'otish, e'tiborni muammoga jalb qilish uchun qo'llaniladigan kuchli lingvopragmatik kompensatsiya vositalaridir. Til bu o'rinda ijtimoiy adolat va tabiat himoyasi uchun qurol vazifasini bajarmoqda.

Zamonaviy maishiy-ekologik muloqotning katta qismi virtual makonga — ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarga (Telegram, Instagram, Facebook) ko'chdi. Bu muhitda an'anaviy matn tuzish meyorlari butunlay transformatsiyaga uchrab, **kreollashgan (polikodli) matnlarni** quyidagi ikki vosita tizimli ravishda an'anaviy tilning tinish belgilari va orfografiyasi yuzaga keltirdi. Kreollashgan matn — bu o'z tarkibida ham verbal (so'zli), ham noverbal (vizual ramzlar, suratlar, emodzilar) unsurlarni birlashtirgan yaxlit lingvovizual tizimdir.

Raqamli maishiy-ekologik diskursda grafik deviatlilar sifatida o'rnini egallamoqda:

1. **Emotikonlar va emodzilar (Emoji):** Ijtimoiy tarmoqlardagi ekologik postlarda his-tuyg'ularni matn orqali uzoq tavsiflash o'rniga, so'z oxirida yoki o'rtasida vizual ramzlar qo'llaniladi. Masalan, «*Bugun yana havo darajasi qizil chiziqqa yetdi □ Oilada hamma yo'talmoqda □ Tezroq chora ko'rilmasa bo'lmaydi □*». Bu yerda niqobdagi yuz, to'xtash belgisi va pasayish grafigi kabi emodzilar nafaqat matnni bezaydi, balki an'anaviy sintaktik undoshlar va tinish belgilari bajaradigan vazifani o'z zimmasiga oladi. Bu grafika sathidagi global deviatliyadir.

Xeshteglar (#Hashtags): Tarmoq muloqotida so'zlarning oldiga «#» belgisini qo'yish orqali ularni global qidiruv kalitiga aylantirish — yangi grafik va semantik normani yaratdi. Masalan, #*DaraxtlarniSaqlang*, #*TozaHavo*, #*OrolFojiasi* kabi birliklar matn ichida ham ega, ham to'ldiruvchi va ayni paytda global ijtimoiy harakatning ramzi (konsepti) vazifasini bajaradi. Xeshteglarda so'zlarning ajratilmasdan, qo'shib yozilishi an'anaviy orfografik meyordan chekinish bo'lsa-da, raqamli diskursning ichki qonuniyati sifatida tan olinadi.

Kreollashgan matnlarda verbal unsur bilan vizual unurning bunday sintezi nutq tezligini oshiradi va adresatga vizual-psixologik ta'sir ko'rsatadi. Bu esa tilning raqamli

ekologiyasi sharoitida til meyorlari chegarasining qay darajada kengayib borayotganini ko'rsatuvchi muhim ilmiy dalildir.

Tildagi konservativ va deviatсион tamoyillar muvozanatiga oid ilmiy muhokama

Tadqiqot davomida aniqlangan fonografik, grafik, leksik, semantik va sintaktik deviatсионlar til tizimining tabiati haqidagi fundamental nazariy bahsni qayta kun tartibiga chiqaradi: Traditsion **lisoniy deviatсионlar tilning inqirozi (tanazzuli) belgisimi yoki uning evolyutsion rivojlanish omilimi?**, qat'iy puristik (til sofligi tarafdorlari) yo'nalish vakillari har qanday deviatсионni, xoh u sheva ta'siridagi talaffuz bo'lsin (ariq \rightarrow oriq), xoh raqamli makondagi Caps Lock yoki emodzilar bo'lsin, adabiy tilni buzuvchi, uning nufuzini tushiruvchi «lisoniy kasallik» sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, til meyorlari mutlaq daxlsiz bo'lishi va qat'iy ma'muriy nazorat qilinishi lozim. Biroq, bizning lingvoekologik tadqiqotimiz natijalari boshqacha ilmiy xulosani ilgari surishga imkon beradi. Til — jamiyat bilan birga yashaydigan, unga xizmat qiladigan tirik, ijtimoiy va dinamik fenomendir. Agar til faqat qat'iy, o'zgarmas konservativ qoliqlar ichida qalqib qolsa, u jamiyatning yangi ehtiyojlarini, xususan, XXI asrning global ekologik xavotirlarini, raqamli media tezligini va jonli maishiy his-tuyg'ularni ifodalab bera olmay qoladi. Natijada, real mulqot tildan uzilib ketadi.

Shu bois, til tizimida ikki qarama-qarshi kuchning bo'lishi qonuniyatdir:

1. Konservativ tamoyil (Til meyori): Tilning barqarorligini, avlodlararo aloqani, milliy kodning saqlanishini ta'minlaydi. Lug'atlar, orfografik qoidalar va akademik uslub mana shu tamoyilga tayanadi.

2. Dinamik/Innovatsion tamoyil (Lisoniy deviatсион): Tilning yangi voqelikka moslashishini, boyishini, nutqning ta'sirchanligi va pragmatik imkoniyatlari kengayishini ta'minlaydi. Okkazonalizmlar, sintaktik parsellyatsiyalar, semantik ko'chishlar mana shu kuchning mahsulidir. Ekologik va maishiy diskursda namoyon bo'layotgan deviatсионlar tilning ichki imkoniyatlari hali tugamaganini, aksincha, u juda elastik va hayotiy ekanligini isbotlaydi. Maishiy nutq ishtirokchisi daraxtlarning kesilishidan kuyganda yoki havoning ifloslanishidan xavotirga tushganda, akademik til qolipidan chiqib, ekspressiv deviatсионga murojaat qilishi — bu lingvoekologik tizimning o'zini o'zi himoya qilish va adresatga fikrni tezroq yetkazish reaksiyasidir. Maqolada ko'rib chiqilgan «yomg'ir/yog'mir» so'zining tarixiy-etimologik deviatlashuvi ham tilning o'z ichki xotirasiga ega ekanligi va zarur paytda undan foydalanishini ko'rsatadi.

Shunday qilib, deviatсионlar tilni vayron qiluvchi unsurlar emas, balki unga yangi hayot bag'ishlovchi, uning meyorlarini boyituvchi va kengaytiruvchi lisoniy mexanizmlardir. Lingvoekologiyaning vazifasi bu deviatсионlarni taqiqlash emas, balki ularning funksional-pragmatik tabiatini tizimli o'rganish va tildagi ikki buyuk kuch — meyor va deviatсион muvozanatini ilmiy nazorat qilishdan iboratdir.

Xulosa. Ekologik va maishiy diskurs materiallari asosida o'tkazilgan lingvoekologik tadqiqot quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirishga imkon beradi:

1. **Lisoniy deviatsiyalar dinamikasi:** Til meyorlari va deviatsiyalar o'rtasidagi munosabat statik emas, balki uzluksiz harakatdagi jarayondir. Bugungi kunda adabiy til meyoridan chekinish deb baholanayotgan ko'plab fonografik va leksik shakllar aslida tilning yangi ijtimoiy-ekologik voqelikka moslashish reaksiyasidir.

2. **Fonografik va grafik tizim imkoniyatlari:** Sheva elementlarining (ariq → oriq) yoki tarixiy metateza shakllarining (yog'mir) ekologik matnlarda qo'llanishi mahalliy muhit va adresat o'rtasida pragmatik ko'priklarni bajaradi. Raqamli makondagi Caps Lock yoki ramziy bosh harflar esa matnning vizual pragmatikasini va axborot uzatish tezligini oshiruvchi stilistik deviatsiyalardir.

3. **Semantik transformatsiya va leksik innovatsiyalar:** Global ekologik inqirozlar tilda «trans-» kabi an'anaviy formantlarning ma'no ko'lamini kengaytirib, ularga yangi geosiyosiy va lingvoekologik denotativ mazmun yukladi. Maishiy nutqdagi iflos, halokat kabi so'zlar esa tilning inqirozi emas, balki aholining ekologik xavotir va his-tuyg'ularini aks ettiruvchi emotsional-baholovchi vositalardir.

4. **Lingvoekologik muvozanat:** Tilning yashashi va rivojlanishi uchun uning tizimida konservativ (meyorni saqlovchi) va deviatsion (yangilik yaratuvchi) tamoyillar o'rtasida doimiy muvozanat bo'lishi shart. Deviatsiyalar tilni ichdan boyituvchi va uning funksional imkoniyatlarini kengaytiruvchi lisoniy mexanizm sifatida baholanishi lozim.

5. **Sintaktik deviatsiyalarning ta'sir kuchi:** Maishiy-ekologik diskursda an'anaviy sintaktik qoidalarning buzilishi (parsellyatsiya va ellipsis) nutqning emotsional va dinamik vaznini sezilarli darajada oshiradi. Gap bo'laklarining atayin ajratilishi adresat diqqatini ekologik muammoning konkret detallariga yo'naltiruvchi pragmatik usul hisoblanadi.

6. **Lingvoekologik kompensatsiya sifatida disfemizatsiya:** Rasmiy diskursdagi disfemizmlarning muammoni silliqlab ko'rsatishiga javoban, maishiy nutqda disfemistik deviatsiyalarning (qatliom maydoni, daraxtxo'rlar) yuzaga kelishi jamiyatning ekologik ongini uyg'otishga qaratilgan lisoniy kompensatsiya mexanizmidir.

7. **Raqamli vizuallashuv tendensiyasi:** Ijtimoiy tarmoqlardagi kreollashgan ekologik matnlarda verbal unsurlarning emodzilar va xeshteglar kabi noverbal grafik deviatsiyalar bilan sintezlanishi zamonaviy til taraqqiyotining global raqamli yo'nalishini belgilaydi va an'anaviy orfografiya va punktuatsiya chegaralarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmadova D. O'zbek tilida kasallik nomlari leksik qatlami. Falsafa fanlari doktori (PhD) diss. avtoref. – Buxoro, 2026. – B. 67.
2. Панула Ю.Н. Окказионализмы новейшего времени: структурно-семантический и функционально-прагматический аспекты. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2005. – С. 17.
3. Ezuruike I.P., Ibileye G. Lexical Innovation: A Morphosemantic Study of Gen-Z Neologisms // International Journal of Research and Innovation in Social Science. – 2025. – Vol. 9, Issue 1. – P. 4551–4563.
4. Павленко А.Н. Креативность и «креатизмы» // Творчество и развитие общества в XXI в. – М.: СПб, 2016. – С. 220–237.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жид. – Т.: Фафур Фулом, 2022. – Б. 391.